

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI  
TABIIYOT FANLARI FAKULTETI

“Himoyaga ruxsat etildi”

Tabiiyot fanlari fakulteti dekani \_\_\_\_\_ E.R.Yuzlikaeva

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

5140400 – Biologiya ta'lim yo'nalishi 4 - kurs talabasi

Iskandarova Sayyora Raxmanovnaning

## BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: CHORVOQ ATROFIDA TARQALGAN  
CHUMCHUQSIMONLAR BIOLOGIYASI

“Tasdiqlayman”

Zoologiya, anatomiya va  
fiziologiya kafedrasi mudiri

\_\_\_\_\_ D.A.Mamatqulov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014  
yil

Ilmiy rabar: pedagogika

fanlari nomzodi, dotsent v.b.

N.J.Toshmanov

\_\_\_\_\_

Toshkent – 2014

## MUNDARIJA

|                                                                                     | Bet |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KIRISH.....                                                                         | 3   |
| I BOB. QUSHLARNING TASHQI TUZILISHI VA HAYOT<br>KECHIRISH XUSUSIYATLARI.....        | 5   |
| 1.1. Qushlar tashqi tuzilishining umumiy xususiyatlari.....                         | 5   |
| 1.2. Qushlarning ko‘payishi va hayot kechirishi.....                                | 6   |
| 1.3. Qushlar ekologik xususiyatlari .....                                           | 9   |
| II BOB. CHORVOQ ATROFIDA TARQALGAN<br>CHUMCHUQSIMONLARINING TAKSONOMIK TARKIBI..... | 12  |
| 2.1.Chumchuqsimonlar turkumining tavsifi.....                                       | 12  |
| 2.2. Chumchuqsimonlar asosiy turlarining tavsifi.....                               | 15  |
| XULOSALAR.....                                                                      | 43  |
| ADABIYOTLAR.....                                                                    | 44  |
| ANNATOTSIYALAR .....                                                                | 46  |
| LUG‘AT .....                                                                        | 49  |

**Mavzuning dolzarbligi.** Qushlarning inson xo'jaligidagi ahamiyati katta. Ko'pchilik qushlar zararkunanda hasharotlarni va kemiruvchilarni kirib foyda keltiradi. Bir qancha qushlar qadimdan inson tomonidan xonakilashtirilgan va hozir ham xonakilashtirilmoqda. Hozir er yuzida 100 mlrd.ga yaqin qushlar yashaydi. Ba'zi qushlar boshqa hayvonlarga oziq bo'ladi. Ular o'simliklar urug'ini tarqatishda ham katga ahamiyatga ega. Kolibrlar, nektarchilar o'simliklarni changlatadi. Yovvoyi qushlar ov ahamiyatiga ega. Dengiz o'rdaklarining momig'i juda yumshoq, issiqlikni yaxshi saqlaydi. Ularning azot va fosforga boy tezagi o'g'it sifatida foydalaniladi. Madaniyat tarixida qushlar pati juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Rim imperiyasi davridan boshlab o'tgan asr o'rtalarigacha patlardan yozuv quroli sifatida foydalanilgan.

R.N.Meklenburtsevning ma'lumotlariga ko'ra chug'urchuqlarning ayrim koloniyalari bir oyda O'rta Osiyoda 100 mingga yaqin chigirtkalarni eb quritadi. M. D. Zverovning ma'lumotiga ko'ra Novosibirskda bitta uyadagi chug'urchuq jo'jalarini boqish uchun 5 kunda 796 ta may qo'ng'izni va 160 ta lichinkasini, 27 ta sim kurti qo'ng'izini va 12 ta lichinkasini eb kuritadi. Umuman bir marta ko'payish davrida bitta chug'urchuq oilasi 7800 may qo'ng'izining lichinkalarini eb quritadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Xumson yozgi oquv amaliyoti bazasi atrofida tarqalgan chumchuqsimonlar turkumlariga mansub qushlarning tarqalishi va biologiyasini o'rganish.

**Tadqiqotning vazifasi.** Ushbu malakaviy bitiruv ishini bajarishda quyidagilarni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik:

- Chumchuqsimonlar turkumiga mansub qushlarning tuzilishi, tarqalishi va ekologik xususiyatlarini o'rganish;
- Chumchuqsimonlar turkumiga mansub qushlarning sistematik tarkibi va hududda tarqalishini o'rganish;
- o'rganilayotgan hududda tarqalgan chumchuqsimonlarning yashash tarzi, bioekologik xususiyatlari haqida ma'lumot to'plash;

I BOB

# QUSHLARNING TASHQI TUZILISHI VA HAYOT KECHIRISH XUSUSIYATLARI

## 1.1. Qushlar tashqi tuzilishining umumiy xususiyatlari

Qushlar sinfiga par, pat bilan qoplangan va oldingi oyoqlari qanotga aylanib, havoda uchishga moslashgan issiq qonli umurtqali hayvonlar kiradi. Qushlarning keyingi oyoqlari Yerda va daraxtlarda yurishga yaxshi moslashgan bo'ladi. Pat, par qushlar sinfining xarakterli belgisi. Ular qush tanasini sovish va namiqishdan saqlaydi. Ayni vaqtda pat bilan par tanaga suyrisimon shakl beradi va qanotning uchish yuzasini hosil qiladi.

Qushlarning jag' suyaklari tishsiz bo'lib, tumshuqni hosil qiladigan muguz g'ilofiga o'ralgan. G'ilofning yuqori qismi ustki tumshuq, ostki qismi esa pastki tumshuq deb ataladi. Tumshuqning shakli va katta-kichikligi oziqlanish xarakteriga va uni topish usuliga bog'liq.

Qushlarning skeleti engil va mustahkam bo'ladi. Ko'pchilik uzun suyaklarning ichi kovak bo'lib, havo bilan to'lgan. Bosh suyaklari juda yupqa bo'ladi. Katta yoshdagi qushlarning ba'zi suyaklari orasidagi choklar yo'qolib ketib, bosh qutisi suyaklari yupqa devorli, choksiz sidirg'a suyak qutichaga o'xshaydi. Shuning uchun ham bosh qutisi suyagi juda mustahkam bo'ladi.

Qushlar yuragi nisbatan ancha yirik, to'rt kamerali bo'ladi. Mayda qushlarning yuragi tana massasining 1,8 protsentini tashkil etadi. Arteriya va vena qoni butunlay ajralgan. Qushlar yuragi minutiga bir necha yuz marta uradi. O'pkasi kichik bo'lsa ham bronxlarning asosiy tarmoqlaridan boshlanadigan yupqa devorli havo xaltalari bo'lgani uchun o'pkada oksidlanish jarayoni tezroq boradi. Havo xaltalari ichki organlar orasidagi bo'shlikni to'ldiradi. Bir qancha xaltachalar teri ostiga va hatto suyaklarga o'tadi. Havo xaltalari nafas olishda ishtirok etadi. Xaltalar organlar orasida havoli yumshoq qatlam hosil qilib, tanadan issiqlik chiqishiga imkon bermaydi; uzoqqa uchishda esa organizmni ortiqcha qizib ketishdan saqlab, uni sovitadi.

Qushlarda haqiqiy hiqildoqdan tashqari kekirdakdan keyin pastki hiqildoq ham bor. Bu hikildoq traxeyaning bronxlarga bo'lingan joyida joylashgan. Qushlarning pastki hikildog'i ovoz apparati, ya'ni boshqa umurtqali hayvonlar ustki hiqildog'i funksiyasini bajaradi. Qushlar hayotida ovoznining ahamiyati juda katta. Ular mayl bildirib o'z juftini tovush yordamida chaqiradi; tahlika yoki tashvish bildirib tovush chiqarib, boshqa qushlarni ogohlantiradi; juftini chaqiradi.

Qushlarda moddalar almashinuvi intensiv boradi. Oziq tez hazm bo'ladi. Masalan, chumchuqsimon qushlar ichagidan suvli mevalar 8-10 minutda o'tib ketadi. Shuning uchun ham qushlarning oziqqa ehtiyoji juda katta bo'ladi.

Ko'pchilik qushlarning oshqozoni yirik bo'ladi. Bu organ oldingi bezli va keyingi etdor qismdan iborat. Qushlar egan oziq oshqozonning bezli qismida kimyoviy o'zgarishga uchraydi, ko'pincha toshchalar yoki qum bo'ladigan muskulli qismida esa oziq mexanik maydalanadi.

Qushlarning ko'zlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ularning havoda hayot kechirishi bilan bog'liq. Qushlar uchgan vaqtida tevarak-atrofni yaxshi ko'rib, to'g'ri mo'ljal olishi kerak. Qushlarning ko'zi nisbatan yirik bo'ladi. Ular uzoq va yahindagi narsalarni yaxshi ko'ra oladi.

## **1.2. Qushlarning ko'payishi va hayot kechirishi**

Qushlar narining qorin bo'shlig'ida joylashgan bir juft dukkaksimon urug'donlari bo'lib, ulardan chiqadigan bir juft urug'yo'li kloakaga ochiladi. Ayrim qushlar (g'ozlar) narida kuyikish organi boladi. Qushlar modasida odatda bitta chap tuxumdon buyrak yaqinida joylashgan. Tuxumdondan chiqqan tuxum tuxum yoliga o'tib, urug'lanadi va oqsil qobiqqa o'raladi. Tuxum keng bachadonga tushib, ohak po'choq bilan qoplanadi; so'ngra jinsiy qin orqali kloakaga o'tadi.

Qushlarning tuxumi yirik sariqlik va oqsildan iborat zahira moddalarboy bo'ladi. Tuxum sariqligi ustida murtak diski joylashgan. Undan murtak rivojlanadi. Tuxumning to'mtoq qismidagi ohak po'choq va po'choqosti parda ostida havo bilan

to'lgan bo'shliq bo'ladi (88-rasm). Rivojlanayotgan murtakning nafas olishi uchun havo zarur bo'ladi.

Qushlar va boshqa ko'pchilik hayvonlarning hayot sikli yashash muhiti sharoiti bilan bog'liq bo'lib, yil davomida o'zgarib turadi. Ularning ko'payishi yil faslining bolalarni boqish uchun eng qulay, oziq-ovqat mo'l bo'lgan bahorga to'g'ri keladi. Qushlar yillik hayot siklini ko'payishga tayyorgarlik ko'rish, ko'payish, qishga tayyorgarlik ko'rish va qishlov davrlariga bo'lish mumkin.

Ko'payishga tayyorgarlik davrida qushlar juft hosil qiladi. Monogamiya deb ataladigan bu jarayon ko'pchilik qushlar uchun xos. Bir qancha qushlar (oqqushlar, laylaklar, lochinlar) jufti bir necha yil, hatto umr bo'yi saqlanib qoladi; boshqalari faqat ko'payish davrida juft hosil qiladi. O'rdaklarning jufti tuxum qo'yishdan oldin tarqab ketadi. Bir qancha qushlar juft hosil qilmaydi nari ko'payish davrida modasini otalantiradi nasli to'g'risida faqat modasi g'amxo'rlik qiladi. Bu hodisa poligamiya deyiladi. Poligamiya ko'pchilik tovuqsimonlar (qirg'ovul, qur, karqur, tovuq) uchun xos.

Ko'pchilik qushlarning narlari juft hosil qilish va ko'payish oldidan turli harakatlar va sayrash orqali urg'ochisini jalb qilishga harakat qiladi; ayrim poligam qushlarning narlari o'rtasida urush ham bo'lib o'tadi. Turnalarning narlari raqsga tushganga o'xshash harakatlar qiladi; tovuqlar dumidagi patlarini yoyib, o'z go'zalligini namoyon qiladi. Chaylahi qushlar nari esa o'tlar, shox-shabbalar va barglardan uya qurib, uni chiroyli toshlar, chig'anoqlar va boshqa ko'zga tashlanadigan narsalar bilan bezatadi. Uyaga urg'ochisini olib kirib, unga gul yoki biron chiroyli narsa in'om etadi. Qushlarning sayrash ham modasini jalb qilishga qaratilgan. Ularning modasi erkagini tanlab, uning bilan juft hosil qiladi. Afrika tuyaqushlarining esa urg'ochisi o'zini namoyish etib, erkagini jalb qilishga harakat qiladi.

Ko'payishidan oldin ko'pchilik qushlar uya qurishga kirishadi. Laylaklar singan shoxchalardan daraxtlar, simyog'ochlar va trubalar ustiga uya qurib, har yili uni yangilab turadi. Qo'ng'irlar suv o'simliklaridan suzib yuruvchi uya yasaydi. Ko'pchilik qushlar daraxtlar kovagiga uya quradi. Qaldirg'ochlar imoratlar

devoriga so'lak bilan aralashtirilgan loydan choraksharsimon uya quradi. Ko'ktarg'oqlar, kurkunaklar, jarliklar va daryolarning tik qirg'oqlarini kovlab uya yasaydi. Chumchuqsimonlar daraxt shoxlari ayrisiga quruq o'tlar, shox, patlar va boshqa narsalardan kosasimon chiroyli uya quradi. Faqat ayrim qushlar maxsus uya qurmaydi. Kakkular o'z tuxumini boshqa qushlar iniga tashlab ketadi. Kayralar va pingvinlar yer ustidagi chuqurchalarga tuxum qo'yadi.

Qushlar sudralib yuruvchilarga nisbatan kampusht bo'ladi. Kampushtlik nasil to'g'risida g'amxo'rlik bilan bog'liq. Uyadagi tuxumlar soni bittadan (pingvinlar, kayralar) 22 tagacha (chil kakliklar) yetadi. Qushlar o'z tuxumlarini jo'ja ochib chiqqungacha bosib, tanasi bilan isitib yotadi. Poligam qushlar tuxumini faqat urg'ochilari (tovuqsimonlar, g'ozsimonlar), monogam qushlarda esa urg'ochisi va erkagi navbat bilan yoki faqat urg'ochisi bosadi erkagi esa urg'ochisini oziqlantiradi va o'z hududini qo'riqlaydi.

Qushlarning inkubatsiya davri tuxumning va qushning katta yoki kichikligiga bog'liq. Mayda chumchuqsimonlar tuxumini 11—12, qarg'a—17, oqqush 35—40, tovuq—21, o'rdak—28, g'oz—30, kurkalar—28 sutka bosadi. Tuxumdan ochib chiqqan jo'jalarning ko'rinishiga ko'ra qushlar jo'ja ochuvchi, chala jo'ja ochuvchi va jish bola ochuvchuga ajratiladi. Jo'ja ochuvchi qushlar tuxumdan chiqqan jo'jalarining tanasi pat bilan qoplangan, ko'zi ochiq, mustaqil harakat qilib, oziqlanadigan holatda bo'ladi. Chala jo'ja ochadigan qushlar bolasi tuxumdan ko'zi ochiq, patli bo'lib chiqadi lekin ucha oladigan bo'lgunicha ularni ota-onalari boqishadi. Jish bola ochadigan qushlarning tuxumdan chiqqan bolasining tanasi patsiz, ko'zi yumuq bolib, ularni ota-onasi uzoq vaqt oziqlantiradi.

Bola boqish davri tamom bo'lganidan so'ng qushlar oilasi tarqalib ketib, ular gala hosil qiladi. Yosh parrandalarning ko'p qismi bir yoshga yetmasdan nobud bo'ladi. Ko'pchilik mayda va o'rtacha kattalikdagi qushlar bir yoshda voyaga yetib, ko'payishga kirishadi. Birmuncha yirikroq qushlar ikki yoshda, gagaralar, burgutlar, bo'ron qushlari 3—4 yoshda, tuyaqushlar 4—5 yoshda voyaga yetadi. Mayda chumchuqsimonlar 1—1,5 yildan 8—10 yilgacha, birmuncha yirik qushlar

30—40 yil (baliqchi qushlar, turnalar, tasqara, Afrika tuyaqushi), hatto 50—70 yil (ukki, qarg'a, burgut, to'tiqushlar) umr ko'radi.

Tullash. Qushlar ko'payishdan so'ng ko'p o'tmay tullay boshlaydi. Chumchuqsimonlarning tullashi sekin va uzoq davom etadi. Tovuqsimonlar, g'ozsimonlar bir necha hafta davomida tullaydi. G'ozsimonlar tullash davrida uchmaydi. Qushlarning nari urg'ochilariga nisbatan ertaroq tullashga kirishadi. Karqur va qurlarning nari tullash davrida o'rmonning ichkarisida yolg'iz yashaydi, o'rdaklar esa borish qiyin bo'lgan botqoqliklarda katta gala hosil qiladi.

### **1.3. Qushlar ekologik xususiyatlari**

Qushlarning hayoti boshqa hayvonlar singari yashash sharoitining o'zgarishlariga moslashgan. Bu moslashuv har bir tur hayotining eng muhim davri bo'lgan ko'payish va bola boqishni ob-havo juda qulay va oziq mo'l bo'lgan mavsumda sodir bo'lishidan iborat. Qushlar hayoti yillik siklini ko'payishga tayyorgarlik, ko'payish, tullash, qishga tayyorgarlik va qishlash davrlariga ajratish mumkin. Ko'payishga tayyorgarlik va ko'payish davrlari to'g'risida yuqorida tushuncha berildi.

Sovuq kunlar kirib kelishidan oldin qushlar ko'p oziqlanishi va organizmida yog' to'plashi lozim. Shuning uchun ular oziq qidirib ko'chib yuradi. Ayrim qushlar qishga birmuncha oziq ham yig'adi. Bazi o'rmon qushlari to'kilgan barglar ostiga yoki tuproqqa o'rmon yong'og'i yoki qarag'ay urug'larini bekitib qo'yadi. Oziq tanqis bo'lgan qish kunlari ular bu oziqning bir qismini topib yeydi. Oziqning qolgan qismi kemiruvchilar va hasharotlarga yem bo'ladi yoki bahorda ko'karib chiqadi. Chittaklar va fotmachumchuqlar qishda yeyish uchun urug'larni po'stloqdagi yoriqlarga bekitishadi. Mayda yapaloqqushlar esa o'zlari o'ldirgan o'ljani daraxtlar kovagiga taxlab qo'yishadi.

Qish fasli qushlarning oziq topishi uchun eng qiyin davr hisoblanadi. Shuning uchun ular qish mavsumiga oldindan tayyorgarlik ko'radi. Yashash joyining mavsumiy o'zgarishiga binoan qushlar o'troq, ko'chib yuruvchi va uchib

ketuvchi ekologik guruhlariga bo'linadi. O'troq qushlar qishda o'zi tug'ilib o'sgan joyini o'zgartirmaydi, faqat oziq qidirib o'nlab kilometr masofaga uchib borishi mumkin. Ko'chib yuruvchi qushlar (qarg'alar, zog'chalar) qish tushishi bilan janubroqqa bir necha yuz kilometrgacha masofaga uchib ketadi, ammo o'zi yashayotgan tabiiy mintaqadan chiqmaydi. Uchib ketuvchi qushlar qish kelishidan oldin minglab kilometr uzoqda joylashgan issiq o'lkalarga uchib ketadi, bahor kelishi bilan uya qurib, bola ochadigan joylariga qaytib keladi.

Qushlar uch guruhga bo'linishi shartli bo'lib, ko'pincha bir turning o'zida ham yashash joyiga qarab mavsumiy o'zgarishlar turli darajada namoyon bo'ladi. Masalan, kulrang qarg'a Yevropaning janubida o'troq, shimolda uchib ketuvchi hisoblanadi. Iqlim va oziqlanish sharoiti ham qushlar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qish iliq kelib, oziq mo'l bo'lganida o'rdaklar va shaq-shaqlar o'zi tug'ilib o'sgan joylarida qishlab qoladi. Bu hol qushlar uchib ketishining asosiy sababi yashash sharoitining mavsumiy o'zgarishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shuning uchun iqlim qancha kontinental bo'lsa, uchib ketuvchi qushlar ham shuncha ko'p bo'ladi.

Qushlarning migratsiya yo'li har xil uzoqlikda joylashgan. Afrikada qishlagan qaldirg'ochlarning yo'li 9—10 ming km, Barens dengizi yaqinida yashaydigan qutb krachkasi qishlash uchun 16—18 ming km uzoqda joylashgan Afrika qit'asiga uchib ketadi. Suv qushlarining uchib o'tishi qo'nib dam olish va oziqlanish uchun sharoit bo'lgan daryolar vodiysi hamda dengiz sohillari bo'ylab o'tadi. Ko'pchilik qushlar gala bo'lib uchadi. Qushlar bir sutkada 1—2 soat uchadi, boshqa vaqtda oziqlanish va dam olish bilan mashg'ul bo'ladi. Mayda chumchuqsimonlar sutka davomida odatda 50-100 km, o'rdaklar 100-500 km, laylaklar-250 km maso-fani bosib o'tadi. Okeanlar ustidan uchib o'tayotganda qushlar dam olmasdan minglab kilometr masofani bosib o'tadi.

Qushlar qishlov joyiga har xil vaqtda uchib ketadi va uchib keladi. Laylaklar, qaldirg'ochlar, zarg'aldoqlar, kakkular yozning oxirlarida uchib ketib, bahor o'rtalarida uchib keladi. O'rdaklar va g'ozlar boshqa qushlarga nisbatan kechroq uchib ketadi. Qushlarning uchib ketishi ular yashaydigan joyda

haroratiirig va oziq miqdoining mavsumiy o'zgarishiga moslanishdan iborat. Qushlarning uchib ketishi uchun kun uzunligining o'zgarishi signal bo'ladi. Shuning uchun ko'pchilik qushlarning uchib ketishi har yili bir xil vaqtda sodir bo'ladi. Qushlar kunduzi yoki kechasi ham uchishi mumkin. Lekin ko'pchilik qushlar kechasi uchib, kunduzi oziqlanadi va dam oladi. Bir xil qushlar gala bo'lib (g'ozlar, o'rdaklar, baliqchi qushlar), boshqalari yakka-yakka (bulbullar, penochkalar, moyqutlar, bedanalar) uchadi. Qushlar uzoq masofaga uchib ketishdan oldin tanasida yog' zahirasi to'playdi.

Qushlarning muayyan muddatda uchib ketish yo'nalishi tug'ma programma asosida belgilangan. Qushlar uchish yo'nalishini quyosh, yulduzlar yoki yer magnit may-doniga asosan aniqlashadi. Tajribalarda yopiq binoda quyosh, yulduzlarning osmondagi o'rni yoki magnit qutblarining holati o'zgarganida qushlar ham o'z yo'nalishini o'zgartirishga uringan. Lekin qushlarning juda aniq navigatsiya qilish xususiyati hozirgacha ochib berilmagan. Ayrim fikrlarga qaraganda qushlar uchib o'tgan yo'lni eslab qolish xususiyatiga ega, ularning yo'l topishi boshqa qushlarning yordami bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

## G'ARBIY TYONSHON CHUMCHUQSIMONLARINING TAKSONOMIK TARKIBI

Qushlar - juda xilma-xil hayvonlar. Ularning Er yuzida 10 000 ga yaqin turi ma'lum. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti xodimlari tomonidan tayyorlangan "O'zbekiston umurthali hayvonlari" ro'yxatida qushlarning 19 turkumi, 55 oilasiga mansub 441 turi, "O'zbekiston Qizil kitobidagi ro'yxatda esa 18 turkumga tegishli 432 turi keltirilgan.

### **2.1.Chumchuqsimonlar turkumining tavsifi**

Chumchuqsimonlarga xilma-xil tuzilgan, har xil hayot kechiradigan qushlar kiradi. Chumchuqsimonlar jahon faunasida 5000 ga yaqin, O'zbekiston faunasida 211 (O'zbekiston Qizil kitobi ro'yxatida 203) turni, ya'ni barcha qushlarning deyarlik yarmisini tashkil etadi.

Chumchuqsimonlarning gavdasi birmuncha mayda yoki o'rtacha kattalikda, oyoqlari ingichka, to'rt barmoqli, ulardan bittasi orqaga, uchtasi oldinga qaragan. Mayda chumchuqsimon 3—5 kunda o'z og'irligiga teng keladigan hasharotlarni yeydi.

Chumchuqsimonlar tumshug'i har xil tuzilgan: nektarxo'rlar (kolibri)niki ingichka va uzun, pishchuxaniki uzun va biroz egilgan, qarg'a va halkaniki konussimon, qaldirg'ochlarniki juda kaltabo'ladi. Chittaklar tumshug'i yordamida daraxt tanasida kovak yasaydi. Chumchuqsimonlar o'simliklar urug'ini ko'pincha butunligicha yutadi. Lekin ular tumshug'i yordamida urug'ni boshoqdan yoki qubbadan chiqarib oladi. To'qimachilar, dehqonchumchuqlar urug'ning po'stini ajratib so'ngra yutadi.

Chumchuqsimonlarning oyoqlari ham har xil tuzilgan. Jibljibonlar, to'rg'aylar tez yuguradi fotmachumchuqlar, jarqanotlar daraxtlar tanasiga qizilishtonlar singari tirmashib chiqadi chijlar panjalari bilan shoxlarga osilib tura

oladi. Qarg'alar oyoqlari bilan ozig'ini bosib turib cho'qiydi, chittaklar, to'tiqushlar va yapaloqqushlar singari ozig'ini changallab olib tumshug'iga keltiradi.

Chumchuqsimonlar qanoti xilma-xil tuzilgan. Hakkaning qanoti kalta va keng bo'lib, qalin daraxtlar orasida uchishga moslashgan. Qaldirg'ochlarning ingichka va uzun qanoti hasharotlarni tez quvib yetishga imkon beradi. Chumchuqsimonlar oyoqlari va tumshug'i murakkab ishlarni bajarishga moslashganligi ayniqsa ularning uya qurishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Chumchuqsimonlarning asosiy ozig'i hasharotlar va o'simliklar urug'idan iborat. Ular hasharotlarni hamma joydan: yer ustidan, tuproqdan, barglar, shoxlar, gullar ustidan, po'stloq ostidan, havodan tutib olib yeydi. Ko'pchilik chumchuqsimonlar ko'payish va bola boqish davrida juft bo'lib yashaydi. Odatda nasli to'g'risida (uya qurish, bolala boqish) erkagi va urg'ochisi birgalikda g'amxo'rlik qiladi. Chumchuqsimonlar 4-5 tadan, 12 tagacha tuxum qo'yadi. Mayda qushlar tuxumi 2 hafta, yirikroq qushlar 3 hafta ichida ochib chiqadi.

Chumchuqsimonlar boshqa qushlarga nisbatan yaxshiroq sayraydi. Ularning kuyi ham murakkab va ovozida juda ko'p signallar bor. Qushlar uchirma bo'lgan bolalarini xavfdan ovoz chiqarib ogohlantiradi. Maynalar, chumchuqlar, hakklar xavf tug'ilganida shovqin solib boshqa qushlarni yordamga chaqiradi.

Chumchuqsimonlarning O'zbekiston faunasida qarg'alar, to'rg'aylar, chittaklar, dehqonchumchuqlar, to'qimachilar, dumparastlar, pashsha-xo'rlar, fotmachumchuqlar, jibilajibonlar, qarqunoqlar, moyqutlar, zarg'aldoqlar, chug'urchiqlar va boshqa oilalarga mansub 109 turi tarqalgan.

Chumchuqsimonlar butun er yuzida tarqalgan, lekin issiq mamlakatlarda turlari xilma-xil va ko'p sonli bo'ladi. Shimolga qarab borilgan sayin ular turlari xilma-xilligi va individlari soni kamayib boradi. Ularning ko'pchiligi uchib ketadigan, bir qancha turlari o'troq hayot kechiradi yoki ko'chib yuradi.

Chumchuqsimonlar oziqlanish usuliga binoan hasharotxo'rlar, donxo'rlar va hammaxo'rlarga bo'linadi. O'simlik bilan oziqlanadigan ko'pgina turlari o'z bolasini hasharotlar bilan boqadi. Birqancha turlarida rangi, katta-kichikligi, ovozi va toji pat o'siqlarida jinsiy dimorfizm ifodalangan bo'ladi.

## Bustonliq tumani atrofi chumchuqsimonlari

| Oila              |              | Tur                     |                               |
|-------------------|--------------|-------------------------|-------------------------------|
| Qaldirg'ochlar    | Hirundidae   | 1. Qishloq qaldirg'ochi | Hirundo rustica               |
| Jibilojibonlar    | Motacillidae | 2. Tog' jibilajiboni    | Motacilla cinerea             |
|                   |              | 3. Oq jibilajibon       | Motacilla alba                |
|                   |              | 4. Niqobli jibilajibon  | Motacilla personata           |
| Qarqunoqlar       | Laniidae     | 5. Uzundum qarqunoq     | Lanius schach                 |
| Zaarg'aldoqlar    | Oriolidae    | 6. Zarg'aoldoq          | Oriolus oriolus               |
| Chug'urchiqlar    | Sturnidae    | 7. Qorayaloq            | Turdus merula                 |
|                   |              | 8. Mayna                | Acridontheres tristis         |
| Qarg'alar         | Corvidae     | 9. Qora qarg'a          | Corvus corone                 |
| Dehqonchumchuqlar | Embrizidae   | 10. Dehqonchumchuq      | Embriza bruniceps             |
| Pashshaxo'rlar    | Muscicapidae | 11. Dumparast           | Terpsiphone paradici          |
|                   |              | 12. Kichik pashshaxo'r  | Ficedula parva                |
|                   |              | 13. Kulrang pashshaxo'r | Muscicapa strata              |
| Shaqshaqlar       | Turdidae     | 14. Janub bulbuli       | Luscinia megarhynchos         |
|                   |              | 15. Qora shaqshaq       | Sturnus vulgaris              |
| Chittaklar        | Paradidae    | 16. Buxora chittagi     | Paris boharensis              |
|                   |              | 17. Sariqtomoq chittak  | Paris rufonuchalalis          |
| To'qimachilar     | Passeridae   | 18. Uy chumchug'i       | Passer domesticus             |
| Vyuroklar         | Fringellidae | 19. Boltatumshuq        | Coccothraustes coccothraustes |

Chumchuqsimonlar – monogam qushlar. Ular jish bolali parrandalar jumlasiga kiradi. Tuxumdan chiqqan bolalari zaif, ko'zi yumuq, jish, terisi siyrak momiq bilan qoplangan. Bittadan 16 tagacha, lekin ko'pchilik turlari 4—6 ta

tuxum qo'yadi. Tuxumlari mayda, odatda olachipor bo'ladi. Tuxumlarining rangi oq yoki oqish bo'ladi. Turli kengliklarda yashaydigan turlari yiliga bir martadan (shimolda) uch martagacha (janubda) tuxum qo'yishi mumkin. Tuxumlarini atigi 11—14 kun, ba'zi turlari 19—20 va qatto 45 kun (jannatqush) bosib yotadi. Ochiq uyali turlarning bolalari uyasini 9—11 kundan so'ng, kovaklarda uya quradiganlarining bolalari uyalarini 23—26 kundan so'ng tashlab ketadi. Uyalarini juda puxta qilib qurish barcha chumchuqsimonlar uchun xarakterlidir. Remezlar va fotmachumchuqlar ayniqsa omilkor bo'ladi. Bolalari bir yashar bo'lganida jinsiy jiqatdan voyaga etadi. Faqat qarg'a ikki yoshda voyaga etadi. Yilda bir marta tullaydi. Mayda turlari tutqunlikda 25 yilgacha, yiriklari (qarg'a) 50 va qatto 69 yilgacha yashaydi.

## **2.2. Chumchuqsimonlar asosiy turlarining tavsifi**

### **1. *Qishloq qaldirg'ochi - Hirundo rustica L. (1-rasm)***

Qaldirg'ochlar uyning ochiq qolgan eshigidan jivir-jivir qilib uchib kirib qoladi. Qishloq qaldirg'ochining qanotlari ancha uzun va o'tkir, dumi chuqur o'ymali bo'ladi. Boshqa qaldirg'ochlardan u orqasining boshdan oyoq qop-qora bo'lishi, tomog'ida malla rang xoli va to'shida to'q rangli belbog'i bo'lishi bilan farq qiladi. Qanotining uzunligi 117-130 mm, massasi 20 g.

Qishloq kaldirfochi tog'risida O'rta Osiyoda mana bunday diniy gap tarqalgan. Bu qush o'z uyasiga ilon o'rmalab kelayotganini payqashi bilanoq darrov dalaga uchib borib, o'sha Yerdan beshiktervatar tutib olib, uyiga qaytib kelarmish. Beshiktervatar ilon bilan olishib, uning ko'zlarini o'yib olar emish. Aslida beshiktervatar ilon ko'zlarini o'yib olishga qodir emas. Qaldirg'ochning o'zi ham yirik hasharotlarni xech qachon tutmaydi. Bu qaldirg'och O'zbekistonda faqat vohalarda uya quradi. Uchib o'tish vaqtida tog'lar va qum sahrolarida uchrab qoladi. Markaziy va Janubiy Afrika, Hindiston va Birmada qishlaydi. Bizga mart o'rtalarida uchib kelib, sentyabrda uchib ketadi.

Eski uyasiga birinchi bo'lib narlari qaytib keladi. Ularning orqasidan modalari uchib kela boshlaydi. Ba'zan narining yoniga o'tgan yilgi modasining o'zi qaytib keladi. Boshqalarda juftlar yangidan qosil bo'ladi. Qaytib kelgan qaldirg'ochlar eski uyasini, garchi u yaxshi saqlanib qolgan bo'lsa ham, odatda egallamaydi, balki ko'pincha shundoqqina shiftga taqalib turgan to'sin yoki ayvon, chordoq devoriga va anchagina qorong'i binolarda yangi uya quradi. Gohida ular chaylalarga yoki o'tovlarga uya quradi. Yarimsharsimon uyasining ustki tomoni ochiq bo'ladi. Uning eni 8—14, balandligi 8, chuqurligi 4 sm. Mart oyidayoq uya qurishga kirishadi. Ular buning uchun so'lagi bilan xo'llab oladigan loydan foydalanadi. Guvalachalarni birini-biriga yopishtiradi, ularning orasiga esa xastcho'p, o't-o'lanlar qo'yib ketadi.



**1- rasm. Qishloq qaldirg'ochi - *Hirundo rustica***

Uyasining ichiga yumshoq o't, pat va ot qili solib qo'yadi. Uyasiga kattaligi 20X14 mm keladigan 4— 6 ta tuxum qo'yadi. Tuxumi oq rangli, qizil-jigarrang bo'lib, qo'ng'ir-kulrang xollari bo'ladi. Tuxumlarini modasi bilan nari 13-16 kun bosib yotadi. Tuxumdan, ko'zi yumuq va zaif jish bola ochib chiqadi. Ular 20—24 kun uyasida turadi. Iyunda va iyulning boshida uyasidan uchib chiqadi.

Polapon qushchalar biror Yerdagi suv ustida egilib turgan shox-shabbalarga kelib qo'nib oladi, ota-onalari esa ularni yana bir necha kun boqib turadi. Yosh qushchalar to'planib, katta gala qosil qiladi. So'ngra daryolar bo'yidagi o'tloqlarda, ko'l sohillari va botqoqliklarning chetlarida yashay boshlaydi. Ikki hafta o'tgach, ota-onalari uyalarini tuzatib, ikkinchi marta tuxum qo'yishga kirishadi. Bu safar tuxumlari bir-ikkita kam bo'ladi. Ikkinchi marta qo'yilgan tuxumdan chiqqan bolalari uyalarini avgustda tashlab ketadi.

Qishloq qaldirg'ochi hasharotlar bilan oziqlanadi, ularni asosan uchib keta turib tutib oladi. Qaldirg'och turli kasallik qo'zfatuvchilari — chivinlar, shuningdek qo'ng'iz va kapalaklarni yo'q qilib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi.

Qaldirg'ochlar Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoning tropik qismida qishlaydi. Bizga 10—12 aprelda uchib keladi, sentyabr oxiri oktyabr boshida uchib ketadi.

Qaldirg'ochlar sof tuproqli va toshli g'orlar shifti, uylar karnizi, temir yo'l ko'priklari, machit peshtoqlariga uya quradi. Uyasi yopiq, uzunasiga kesilgan serbar flyaga yoki kolbani eslatadi, qopqog'ida ba'zan uchta yo'li bo'ladi. Qaldirg'ochlar uyasini loydan, so'lagi bilan ho'llab 5—6 kun davomida quradi. Yasi ichiga o't-o'lanlar va patlardan to'shama soladi. Uya qurishga aprel oyining oxirida kirishadi. May oyida uyasidan 4—5 ta oppoq tuxum topilgan. Tuxumdan chiqqan bolalari 23—25 kungacha uyasida hayot kechiradi, ularni uchib chiqqanidan keyin ham ota-onalari yana 3—4 kun boqib turadi. Butun ko'payish sikli taxminan 40 kunni tashkil qiladi. Ikkinchi marta qo'yilgan tuxumlardan chiqqan yosh qushchalar uyasidan avgust oxirlari va sentyabrda uchib ketadi.

## **2. Oq jibilajibon - *Motacilla alba* L.( 2 - rasm)**

Ariq bo'ylari yoki yo'l yoqalarida kattaligi chumchukday keladigan kichkina bir qush uzun dumini likillatib tez-tez yugurib yuradi. Bu jibilajibondir. Peshonasi, qorni, lunjlari oq, to'shi bilan boshining usti va orqasi qora tusli kul rang. Har bir qanotida bittadan katta xoli bo'ladi.

Jibilajibon O'zbekistonda soy, anhor va ko'llar yoqasidagi sug'oriladigan joylarda yashaydi. Eron, Affoniston va Hindistonda qishlaydi. Fevral oxiri — martda bizga uchib keladi. Ayrim jibilajibonlar O'rta Osiyoda qishlab qoladi. Ularni ba'zan yanvar oyida Toshkent yaqinidagi Soylar bo'ylarida yoki Samarqand yonidagi Qorasuv va Zarafshon sohillarida uchratish mumkin.

Jibilajibonlar vataniga uchib kelganidan keyin juft-juft bo'lib yuradi. Lekin uya qurishga oshiqmaydi. 20 yoki 40 kundan keyin biror yerdagi toshlar orasiga,



**2 - rasm. Oq jibilojibon - *Motacilla alba* l.**

ariqlarning tik qirg'oqlariga, buzilgan imoratlar yoki daraxtlarga erga yaqin kilib uya qurishga kirishadi. Uyasining ostki qavatiga o'simliklar ildizi va poyasini, ichki qavatiga jun, pat, paxta yoki momiq to'shaydi. Ularning hammasini odatda ot qili bilan chigallashtiriladi. Aprelda tuxum qo'yaboshlaydi. Uyasida 20X16 mm kattalikdagi 4—6 tuxum qo'yadi. Qush zararkunanda hasharotlarni qirib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi.

### **3. Zarg'aldoq - *Oriolus oriolus* L. (3- rasm)**

May oyida, bog'lardagi katta ariq. Yonida o'sgan daraxtlarda ko'pincha «biyov-biyov» degan juda falati ovozni, ba'zan jahli chiqqan mushukning miyovlashiga o'xshab ketadigan qattiq sayrashni eshitish mumkin. Bu sayrab turgan qushni ko'rishga kamdan-kam odam muyassar bo'ladi. Ana shu ehtiyotkor qush daraxtlarning shox-shabbalariga biqinib qo'nib turadi. «Kovakka kirib qaerdadir zarg'aldoq ingrar» deb yozgan mashhur rus shoiri Sergey Esenin haq emas. Nari och sariq, qanotlari bilan dumi qora. Modasi va yoshlari yashil-kulrang. Zarg'aldoq chug'urchiqdan sal kattaroq bo'ladi. Tanasining uzunligi 250 mm, qanotining uzunligi 150—160 mm atrofida, qanotlarini yozganida 450—490 mm ga boradi. Massasi 70—85 g.

O'zbekistondagi to'qay o'rmoyalari va vohalarda zarg'aldoq ko'p bo'lmaydi. Tog'oldida joylashgan bog'larda va balandligi 2000—2500 m gacha boradigan tog'lardagi bargli o'rmonlarda bu qush ancha ko'p uchraydi. Hindiston, ooris va Janubiy Afrikada qishlaydi. May oyi boshida, ba'zan aprel oxirida uchib keladi. Avgust oxiri, sentyabr oyi boshlarida esa uchib ketadi.



**3- rasm. Zarg'aldodoq - *Oriolus oriolus* L.**

Daraxtlarning ingichka ayri shoxlariga uya quradi. Ko'pincha uyasini suvdan 2—3 m balandlikda osilib turgan shoxlarga quradi. Aholi yashaydigan punktlarda esa mirzateraklar va yonfokdarning uchlariga, Yerdan 10—20 m balandlikda quradi. Qurgan uyasi shoxlar o'rtasida osilib turadigan kichikroq savatcha ko'rinishidagi bulturgi yumshoq o'tlar va shilib olingan po'stloqlardan quradi. Uyasining eni 13, devorlari 2—3, ichki diametri 7, chuqurligi 5 sm bo'ladi. Uyasi ba'zan patlar va junlar bilan qoplangan bo'ladi. Uyani asosan nari quradi. Qurilish materialini modasi bilan nari birga yig'adi. May oyining oxirlarida uyasida kattaligi 30X20 mm keladigan 3—4 ta tuxum paydo bo'ladi. Tuxumining po'sti oq, pushti fubori va siyrak qora – qo'ng'ir xollari bor. So'nggi tuxumini qo'yganidan keyin tuxum bosishga kirishadi va 14—15 kundan keyin tuxumdan bola ochib chiqadi. Tuxumlarini modasi bosib yotadi. Nari uni boqib turadi va ba'zan o'rniga o'tib tuxum bosadi. Tuxumdan chiqqan bolalari ko'zi yumuq va patsiz bo'ladi. Ota-onalari ularni 18—19 kun uyasida boqadi. Hali ucha olmaydigan yosh qushchalar ba'zan inidan chiqib olib, daraxt shoxlarida o'tiradi yoki shoxdan-shoxga uchib o'tadi. Shundan keyin ota-onalari ularni yana 5—8 kun davomida boqadi. Zarg'aldoq kapalak qurtlari, daraxtlarda yashaydigan qo'ng'izlar bilan oziqlanadi.

#### **4. Soch, y'ani chug'urchiq - *Sturnus roseus L* (4-rasm)**

May oyida, tut pishib qolgan kezlarda O'zbekistonning qishloq va shaharlarida chug'urchiq galalari paydo bo'ladi. Ular qattiq chug'urlab daraxtdan-daraxtga uchib o'tib, pishib turgan tutlarni eb ketishadi. Narlarining boshida uzun o'sgan qora patlardan iborat toji, ya'ni sochi bor. Bo'yni, jig'ildoni, qanotlari, dumi qora, metallga o'xshab ko'kimtir-binafsha rangda tovlanib turadi. Orqasi, to'shi, qorni va ikki yon tomoni och pushti tusda. Modasining rangi unchalik och emas. Sochi ancha kaltarok,. Yosh qushchalari oqish-ko'ng'ir, qorni oqish bo'ladi. Qanotining uzunligi 119—135 mm bo'ladi.

O'zbekistonda asosan tog'oldi joylarida uya quradi. Ustyurtda ham uchrab turadi. Oldingi Osiyoda, butun Hindiston va Shiri Lanka orolida qishlaydi. Mart oxiri — aprel boshlarida bizga uchib keladi. Kuzda uchib ketish muddati notayin. Ovqat kam bo'lsa, bu qushlar iyul yoki avgustda, boshqa yillari sentyabr o'rtalarida yo'q bo'lib qoladi. Bir necha mingtasi birga qo'shilib katta-katta koloniya bo'lib uya quradi. Uyasini ko'pincha toshlar orasiga, gohida jarlardagi inlarga soladi. Uyasini modasi bilan nari birga quradi. Nari o't-o'lanlarni tashib keltiradi, modasi esa ularni joylab-terib chiqadi. To'shamasida chug'urchiq patlari uchraydi. May o'rtalarida tuxum qo'ya boshlaydi. Uyasida kattaligi 26X21 mm keladigan 4—6 ta och havo rang tusli tuxum bo'ladi. May oxirlarida patsiz, ko'zi yumuq, nimjon qush bolalari tuxumdan chiqadi. To'rtinchi va beshinchi kuni bolalariniig ko'zi ochiladi. 20 kundan keyin yosh qushchalar uyasini tashlab chiqadi. Uchirma bo'lgan qushchalar voyaga etgan qushlar bilan gala bo'lib to'planaib, O'zbekiston va qo'shni joylar bo'ylab safarga otlanadi.



**4-rasm. chug'urchiqlar - *Sturnus roseus* L.**

Sochlar – chigirtkalarni ko'plab qiradi. Voyaga etgan bitta qush kun bo'yi 200 donagacha chigirtka eydi. Buncha chigirtkaning og'irligi (200 g) qushning

og'irligidan ikki yarim baravar ko'proq keladi. Chigirtka ko'p bo'lsa, bu xildagi qushlar chigirtkalarni eya olmay qolganida ham ularni o'ldirib, tashlab ketadi.

Yosh bolalari uyasidan uchib chiqqanidan keyin ko'pincha tokzorlarga yopirilib, zarar etkazadi. Uzunxo'r bu qushlarni poroxi kam, ammo pitrasi ko'p bo'lgan, maxsus tayyorlangan o'qlar bilan cho'chitib haydashadi. Bunday pitra qushlarga tegadiyu, lekin ularni o'ldirmaydi. bir necha marta o'q uzilganidan keyin bosqinchi qushlar tokzorga kelmay qo'yadi.

Soch juda foydali qushdir. Qanchadan-kancha chigirtkani yo'q qilib, tokzorlarga keltirgan zararini ortig'i bilan qoplab beradi. Bundan tashqari bu qushlar zararkunanda qo'ng'izlar, qandalalar, kapalak qurtlari va boshqa hasharotlarni qiradi. Sochni muqofaza qilish kerak.

#### **5. Mayna - *Acridotheres tristis* L. (5-rasm)**

Mayna Sobiq Ittifoqda qiyosan yaqinda paydo bo'ldi. 1912 yili shu qushlarning bir necha jufti Termizda topilgan edi, bu erga ular Afg'onistondan uchib o'tgan ekan. 1926 yili bu qush Kerki shaqri (Turkmaniston SSR) da topildi. 30-yillarda O'zbekistonning janubida, 40- yillari esa Buxoro hamda Samarkand oblastlarining hamma erida keng tarhalib ketdi. 1955 yili mayna Jizzaxda, 1960 yili esa Toshkent atroflarida paydo bo'ldi. Bu qush Amudaryo bo'ylab tez tarqalib, uning quyi oqimlarigacha etib bordi va Qozog'istongacha o'tdi. Maynaning shimolga qarab tarqalib borish sabablari hozircha aniqlangan emas.

Mayna - sochdan ko'ra sal yirikroq qush. Qanotining uzunligi 135—147 mm. Boshining ustki tomoni va ikkala yoni yaltiroq, kul rang-qora. Tomog'i ham ba'zan shunaqa rangda bo'ladi. Tomog'i bilan jig'ildoni aksari bir tusda, ya'ni kulrang bo'ladi. Qanotlari bilan dumi oq aralash, to'q-qo'ng'ir. Dumining uchi, osti va qanotining tagi oq. Oyoqlari, tumshug'i va ko'zining atrofi patsiz, terisi sariq. Narlari bilan modalarining rangi bir xilda. Yosh qushchalar voyaga etganiga o'xshaash, lekin patlari biroz xiraroq bo'ladi.



**5-rasm. Mayna - *Acridotheres tristis* L.**

Mayna o'troq qushdir. Turli individlari, chamasi, turli joylarda tuxum qo'yishga kirishadi, qatto bitta joyning o'zida ham bir vaqtda tuxum qo'ymaydi. Tuxumlari may, iyun, iyul va avgustda ham topilgan. Bitta modasi bir necha marta urchiydi. Uyalarini daraxt kovaklariga, inlarga, tomlarning orasiga, paxsa devordan kurilgan imoratlarning yoriq-tirqishlariga soladi. Bir kuni men oq laylak inining shoxlar orasiga solingan mayna uyasini uchratib qoldim. Uyasini nari bilan modasi o't-o'lanlar, patlar, kigiz va jun parchalaridan quradi. Junni Yerdan yig'adi yoki sigir va qo'ylardan yulib oladi. Uyasida kattaligi 30X21 mm keladigan 3— 6 ta havo rang tuxum bo'ladi. Tuxumlarini modasi bilan nari galma-gal 14 kun bosib yotadi. Tuxumdan chiqqan bolalarini uyasida 25 kun va ular uyasidan uchib chiqqanidan keyin yana 5 kun boqib turadi. Bir necha kun o'tganidan keyin modasi yana tuxum bosishga o'tiradi.

Mayna chigirtkalar bilan oziqlanadi. Bir juft mayna yiliga shu zararkunanda hasharotlarning 150 mingtachasini qirib tashlashi hisoblab chiqilgan. Ko'pincha pashshalar, so'nalar va qo'y bilan sigirlarning ustiga o'tirib olib, boshqa parazitlarni ham tutib eydi. Bu qushlar juda kamdan-kam paytlarda tut va tok mevalarini eb ketadi. Qish kezlari axlatxonalar va odamlar yashaydigan turar joylar atrofidagi tashlandiq narsalar va don-dunlar bilan oziqlanadi. Mayna chigirtkalarni qirib, katta foyda keltiradi. Bu qushni qo'riqlash kerak.

Maynani ko'pincha qafaslarda asrashadi. Bu qush egasiga yaxshi o'rganib qoladi, ba'zan gapirishni o'rganadi.

**7. Zag'izg'on, yani hakka - *Pica pica* L. (6 - rasm)**

Boshi, bo'yni, ko'kraging oldingi qismi, orqasi, dumi qora elkasi, ko'kraging orqa qismi va qorni oq. Tumshug'i va oyoqlari qora. Dumi juda uzun. Bu qush bog'lar, sohillardagi to'qaylar va tog'lardagi bargli o'rmonlarda yil bo'yi o'troq yashaydi.



**6 - rasm. Zag'izg'on, yani hakka - *Pica pica* L.**

Martning ikkinchi yarmida zag'izg'onlar juft-juft bo'lib oladi va daraxt shoxlarining ayrilariga uya qurishga kirishadi. Uyasining tagi va tomi quruq cho'p va xaslardan quriladi. Ichki qavatini savatcha ko'rinishida loydan yasab, tagiga o't tashlaydi. Uyasini nari bilan modasi birgalashib quradi. Mart oxirlariga borib ba'zi uyalardagi qushlar endi tuxum qo'ygan bo'ladi. Tuxum qo'yish bir tekis o'tmasdan maygacha cho'zilib ketadi. Uyasida kattaligi 34—24 mm keladigan bir talay

qo'ng'ir xolli 5—8 ta havo rang-yashil tuxumlar bo'ladi. So'nggi tuxumini qo'yib bo'lganidan keyin tuxum bosishga boshlaydi. 18—19-kuni tu-xumlardan patsiz va nimjon bolalar chiqadi. Ota-onalari bolalarini 17—18 kun uyasida boqadi. Bolalari uyasidan uchib chiqqanidan keyin ota-onalari ularni yana 6—8 kun boqadi. Bolalari ko'pincha shoxdan-shoxga uchib o'tishni salgina o'rganib olishi bilan uyasini tashlab chiqadi. Mana shu paytda ota-onalari qattiq chig'irlab, bolalarini dushmanlar xujumidan himoya qadi. Zag'izg'on qafasda yashashga tez o'rganadi.

Zag'izg'onlar qo'ng'izlar, kapalak qurtlari, qandalalar, chigirtka va boshqa zararkunanda hasharotlar bilan oziqlanadi. Yoz kezlari zag'izg'onlar ba'zan tut, o'rik, olcha, uzum mevalarini eydi, tarvuzlarni cho'qib ketadi.. Kuz va qishda o'laksalar, tashlandiqlar, oqjo'xori, bug'doy, arpa donlari, begona o'tlarning urug'lari, jiyda danaklari bilan oziqlanadi. Zag'izg'on ziyonidan ko'ra ko'proq foyda keltiradi. Bundan tashqari juda ko'p foydali qushlar: ko'k qarg'alar, boyo'g'lilar zag'izg'onning eski uyalariga joylashib oladi. Shu sababdan zag'izg'onni qo'riqlash kerak.

### **8. Zag'cha - *Sorvus monedula* l. (7-rasm)**

Zag'chani hamma yaxpsh biladi. Qish kezlari bu qushlar go'ngqarg'a va olaqarg'alar bilan birga yig'ilib, katta shaharlarda tunaydi. Ko'pincha to qorong'i tushguncha ular daraxtlarga joylasha olmay, dam-badam ko'tarilib uchishadi va yuqorida aylanib yurib, keyin tag'in qo'shni daraxtga borib tushadi. Zag'chalar uchish vaqtida o'zlariga qon-qarindosh bo'lgan boshqa parrandalar — go'ngqarg'alar va olaqarg'alarga nisbatan ancha chaqqon bo'ladi. Ular ko'p sonli qushlar orasida xuddi suvoriylardek ko'rinadi. O'zbekiston shahar va qishloklarida qishlab qoladigan zag'chalarning bir qismi erta bahorda birmuncha shimoliy xududlarga uchib ketadi. Boshqalari aholi yashaydigan punktlar yaqinidagi jarlar yonbag'irlari va chuqur o'pirilmalarga joylashib oladi.

Mart oxirlarida jarlardagi inlar, qoyalar va paxsa imoratdagi yoriklarga, uylarning karnizlari tagiga yoki daraxt kovaklariga uya kuradi. Bu ishda nari ham

ishtirok etadi. Ingichka cho'p-xaslar, patlar, latta-puttalar, jun bo'laklari, qofoz parchalaridan qurib olgan uyasidan bu qushlar bir necha yil foydalanadi.

Aprelda tuxum qo'yadi. Uyasida kattaligi 36X27 mm keladigan, qo'ng'ir xolli 4-6 ta havo rang-yashil tuxumlar bo'ladi. Modasi so'nggi tuxumini qo'yib bo'lganidan keyin tuxum bosishga kirishadi. 18— 20 kundan keyin tuxumdan bolalari ochib chiqadi. Respublika janubida bolalari aprel oxirida paydo bo'ladi. Zag'chaning ovqati qo'ng'izlar, qurtlar, shuningdek turli o'simliklarning donlaridan iborat. Zararkunanda hasharotlarni qirib, qush foyda keltiradi. U hamisha odamning turar joyiga yaqin, bog'-rog'lar, dalalar va ekinzorlarda yashaydi

Yosh zag'chalar kafasda yashashga tez o'rganadi. Ular o'z egasini yaxshi tanidigan bo'ladi. O'rgatilgan zag'chalar ko'pincha erkinlikka chiqarib yuboriladi,



**7-rasm. Zag'cha (*Sorus monedula l.*)**

shunda ular bir oz uchib, yana uyiga qaytib keladi. Ba'zan ularni gapirishga o'rgatishadi.

### **9. Qora qarg'a - *Corvus corone* L. (8- rasm)**

Qora qarg'ani xuddi go'ng qarg'a bilan ola qarg'a singari, tusiga qarab oson tanib olsa bo'ladi. Ola qarg'adan bu qush kichikroq bo'lishi, go'ngqarg'adan kamroq harakatchan bo'lishi, tumshug'ining yo'g'onligi va sal qayrilganligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari qora qarg'alarning burun teshiklari qattiq qillar bilan qoplangan. Go'ng qarg'alarda, ayniqsa voyaga etgan davrida tumshufining atrofida yalang'och teri bo'ladi. Qora qarg'alar juft-juft bo'lib, go'ng qarg'alar katta koloniya bo'lib uya quradi.

Yoz paytlari respublikamizda qora qarg'alar daryo bo'ylaridagi to'qaylarda, daraxtzorlar, bog'lar va tog'lardagi o'rmonlarda (3000 m gacha balandlikda) yashaydi. Qishda aholi yashaydigan turar joylarga yaqinroq tushib keladi. Tekislikda yashaydigan qushlar ham aholi punktlariga uchib keladi.



**8- rasm. Qora qarg'a - *Corvus corone* L.**

Daraxtlar, qamishzorlar, butazorlarga uya quradi. Daraxtlarga soladigan uyalari odatda balandda, daraxt tanasiga yaqin joyda yoki uning ayri shoxida bo'lsa, butalarda pastroqda solingan bo'ladi. Uyasining asosini quruq xas-cho'plardan quradi. Kosachasiga jun, latta-putta va daraxt po'stloqlaridan yaxshilab to'shama soladi. Qamishzorlardagi uyalari yaxshilab ezilgan qamishdan kurilgan va ustiga quruq o't va ingichka xas-cho'plardan to'shama solingan

bo'ladi. qamishlar orasi va butalardagi uyalari yaxshilab pana qilingan bo'ladi, daraxtlarda esa ko'rinib turadi.

Samarqand atrog'larida aprel o'rtalarida tuxum ko'ysa, baland tog'larda faqat may o'rtalarida tuxum qo'yadi. Uyasida 3—5 ta, ba'zan 6—7 ta tuxum bo'ladi. Tuxumining po'sti havo rang yashil, sarg'ish-qo'ng'ir xollari va nuqtalari bor. Tuxumlarining kattaligi 42X30 mm; og'irligi 17—19 g, tuxumlarini modasi 18—20 kun bosib yotadi. 30—35 kunlik qush bolalari ucha boshlaydi. Birinchi marta qo'ygan tuxumlari palag'da bo'lib yoki sinib ketsa, bu qushlar ikkinchi marta tuxum qo'yadi. Iyun boshlarida qush bolalari uyasini tashlab chiqadi.

Qarg'a hammaxo'r qushdir. Bahor kezlari u o'lik baliq, kemiruvchi qayvonlarni, o'rdak, fozlar, qashqaldoqlar va boshqa qushlarning tuxumlarini; yozda baliq va astragal mevalari, kaltakesak, kemiruvchi qayvonlar, qo'ng'izlar, chigirtkalarni; kuzda jiyda mevalari, baliq, uy sichqonlarini eydi. Qishda dala sichqonlarini tutib eydi, yirtqich parrandalardan qolgan nishxo'rdlar, tashlandiqlar bilan qanoatlanadi. Amudaryoning quyi oqimlarida ko'pincha ondatraga kirg'in keltiradi. Qora qarg'a eng zararli kushlarning biri. U ovlanadigan qayvonlar va qushlarning bolalarini yo'q qiladi.

Qish kezlari Uzbekistonning hamma joyida ola qarga (*Corpus cornix* L.) uchraydi. U katta-kichikligi va tashqi ko'rinishidan xuddi qora qarg'adek bo'ladi, lekin rangi undan farq qiladi. Bu qush deyarli boshdan oyoq kul rang tusda, faqat boshi, ko'kragi, qanotlari va dumi qora bo'ladi.

#### **10. Moyqut (slavka)- *Sylvia curruca* L. (9-rasm)**

Butun Uzbekistan bo'ylab slavka degan qush uya quradi. Bu kichkinagina qo'ng'ir tusli qush, pastki tomonining tomog'igacha oppoq bo'lishi bilan ajralib turadi. Butalarda yashaydi. Sayrashini «itil-itil-itil»— degan ovozlarga o'xshatish mumkin, uning sayrashini bir xilda eshitilmasdan, balki ovozi pasayib boradi, qanotining uzunligi 56—68 mm, massasi 19—21 g (69-raem). Respublikamizda bu qushchanning bir necha kenja turi uchraydi. Tekisliklarda qozog'iston slavkasi

uya qursa, tog'larda tog' slarkasi uya quradi, uchib o'tish vaqtlarida sibir' slarkasi uchib turadi.



**9-rasm. Moyqut (slarka)- *Sylvia curruca* L.**

Qozog'iston slarkasi buta chakalakzorlaridan uzoq ketmaydi. Tog' slarkasining eng yaxshi ko'radigan joylari bargli va archa o'rmonlari mintaqasidagi dalalar hamda tog' yonbag'irlaridagi bargli daraxtzorlardir (dengiz satqidan 2000—3000 m balandlikda). Slarkalarning uchib o'tishi va tekisliklarga uchib kelishi mart oxiri — aprel boshlariga, Ugam va Pskom tog'larida ancha kech may boshida bo'ladi. Kuzda uchib o'tishi avgust oxiridan to oktyabrgacha davom etadi.

Qizilqumda, odatda g'arbiy tomonda saksovul va qandim butalarining quyuv shoxlariga Yerdan 70—120 sm balandlikda uya quradi. Uyalari yarimsharsimon bo'ladi. Ular dag'al qurilgan, omonat, shunchali engil bo'ladiki, devorlarining orasida yorug'lik o'tib turadi. Tashqi qavati naridan beri chirmashtirib qo'yilgan saksovul, juzgun shoxchalaridan iborat bo'lib, hamma yoqqa turtib chiqib turadi. Ichki qavati juda yup-qa, siyrak, ingichka-ingichka has cho'plardan qurilgan. Uyasining balandligi 55—70, tashqi diametri 85—130, chuqurligi 20—58, kosacha-sining diametri 50—53 mm dir. May oyida tuxum qo'yadi. Batamom

qo'yib bo'lgan tuxumlari Qizilqumda 20 maydan to 2 iyungacha topilgan. Uyasida kattaligi 16X12 mm kela-digan 4—5 ta tuxum bo'ladi. Tuxum po'chog'ining asosiy rangi yashil-oqish yoki qora-oq yoki binafsha bo'lib, kulrang va qo'ng'ir qollari va nuqtalari bor. Tuxumdan chiqqan bolalari Qizilqumda iyun boshlarida, polaponlari esa 23 iyundan boshlab uchragan. Slavka daraxtdan-daraxtga va butadan-butaga chiqib hamda sakrab o'tib, ovqat kidiradi va shoxchalar hamda barglardagi hasharotlarni topib eydi.

Dengiz satqidan 2000 m gacha balandlikda, buta o'simliklari bilan qoplangan quruq tog yonbag'irlarida sayroqi slavka (*Sylvia hortensis* Gm.) uchraydi. U qorabosh slavkaga o'xshaydi, lekin boshidagi qora patlari ancha pastroq, lunjlariga tushib kelgan bo'ladi. Bu qushchaning orqasi va ikkala yoni oqish rangda bo'ladi.

Tog'lardagi buta chakalakzorlarida kulrang slavka (*Sylvia communis* Lath.) uya quradi. U qorabosh slavkadan yirikroq, ammo lochinsimon va bog' slavkasidan kichikroqdir. Rangi kulrangnamo och ko'ng'ir, pastki tomoni och tusda, deyarli oq.

### ***11. Janub bulbuli - Luscinia megarhynchos Vrenm (10-rasm)***

May oqshomlari, kun botishi bilan Namangan atroflarida, ba'zi joylarda esa shahar markazida ham malladan kelgan kichkina bir qush bulbulning xilma-xilligi va go'zalligi jihatidan nihoyatda yoqimli bo'lgan sayrashi eshitiladi, bu qush tog'risida qanchadan-qancha shoirona hbikoyalar to'qilgan-u, lekin o'zini ko'rganlar kam.

O'zbekistonda bulbul sohil bo'yi to'qaylarida, talaygina buta o'simliklar va suv bo'ladigan bog'-rog'lar va qishloqlarda, tog'lardagi bargli o'rmonlarda uchraydi. Qanotining uzunligi 78—95 mm. Qishlash joyi (Janubiy Arabiston)dan bulbul aprel boshlarida uchib ketadi, aprel oxirlab, dov-daraxtlar endi yangi barg chiqargan kezlarda bizga uchib keladi. Sentyabrda uchib ketadi.



**10-rasm. Janub bulbuli - *Luscinia megarhynchos* Vrenm.**

Uyalarini soy bo'ylari va daryo orollari, tog' yonbag'irlaridagi butazorlarga, ko'pincha qarovsiz qoldirilgan bog'larda butalar orasidagi shundoqqina yerga, yonidan shox chiqargan daraxt to'nkalariga, kichik butalar va kichik-kichik daraxtlarga yerga yaqin qilib quradi. Uyasining tagi qatlamini qiyosan dag'al poyalar va donli o'simliklarning barglarini qayrag'och yoki jiyda barglari bilan aralashtirib solsa, ichki katlamini donli o'simliklarning nozik barglaridan soladi. Uyasini topish qiyin, chunki u atrofdagi Yerda yotgan quruq barglar bilan qo'shilib ketadi. May-iyunda tuxum qo'yadi. Uyasida kattaligi 21X16 mo' keladigan 4—5 ta tuxum bo'ladi. Tuxumining po'sti kulrang yoki ko'kimtir sarg'ish-yashil tusda. Tuxumlarini modasi, aftidan, 13—14 kun bosib yotadi. Tuxumdan chiqqan bolalari patsiz va nimjon bo'ladi. 15 kundan keyin ular ancha o'sib, uyasini tashlab chiqadi. Bulbulning ovqati faqat hasharotlar va ularning lichinkalaridir. Bu sayroqi kushni muhofaza qilish kerak.

Oqtomoq bulbul (*Irania gutturalis* Guerin.) tog'larda (2200 m gacha balandlikda) uya quradi. Bu qushcha boshining ikkala yoni qora, tomog'i oq, ustki tarafi kulrang, pastki tarafi qovokrang-malla. U butalarda yashaydi, yerga kamdan-kam tushadi, lekin toshlar bor joylarda bu qush shu toshlar ustida ham o'tiradi.

## **12. Qorayaloq - *Turdus merula* L. (11-rasm)**

Toshkent va Andijondagi bog'-rog'lar va parklarda chug'urchuqdan sal kattaroq keladigan qora qushni yil bo'yi uchratish mumkin (qanotining uzunligi 112—146 mm). Ba'zan bu qush qattiq chirillab, shundoq oyoq tagidan uchib chiqadi va dov-daraxtlarning shox-shabbasiga berkinib oladi. Qorayaloqlar tog'oldi joylaridagi qishloqlarda (Xumson, Parkent, So'qoq) yoki Pskom, Ugam bo'yidagi tog'li dalalarda ham uchraydi. O'zbekistonda bu qush faqat tog'lar, tog'oldi joylari va respublika sharqiy qismida vohalarida uchraydi.

Tekkisliklarda aprelda, tog'larda esa faqat may oyida qorayaloq qanday bo'lmasin biror daraxtga ochiq savatcha ko'rinishida uya soladi. Uyasining tashqi qatlami quruq barglar, xas-cho'plar va o't-o'landan iborat bo'lsa, o'rta qismi o'simlik qoldiqlari bilan aralashtirib qurilgan loydan qurilgan bo'ladi. Uyaning ichiga mayin o't poyalaridan to'shama soladi. Uyasida kattaligi 29x22 mm keladigan 5—6 ta tuxum bo'ladi. Tuxumining po'sti asosan oqish rangda, havo rang-yashil, qo'ng'irroq tusda bo'ladigan tarqoq xollari va naqshi bor. Tuxumlarini modasi bosib yotadi, ba'zan nari modasi o'rnini oladi. Yil bo'yi, aftidan, ikki marta tuxum qo'yadi. Tuxumlarini 13-14 kun bosib yotadi. Tuxumdan chiqqan bolalari 12- 15 kungacha uyasida bo'ladi, ularni modasi bilan nari baravar bokib boradi.



**11-rasm. Qorayaloq - *Turdus merula* L.**

Qorayaloq qo'ng'izlar, kapalak qurtlari, kuz va qishda mevalar bilan oziqlanadi. Hasharotlarni qirib, bog' va o'rmonlarga foyda keltiradi. Tog'larga bir talay qor tushib qolgan paytlarda qorayaloqlar dov-daraxtli dalalarga va daryolarning vodiylariga tushib keladi.

Tog'oldi joylari, vohalar va daryo vodiylarida qishlov vaqtida qoratomoq qorayaloq (*Turdus ruficollis* Pall.) ko'p bo'ladi. Bu qush bizda sentyabr oxirida paydo bo'ladi, mart oxiri, aprelda esa uchib ketadi. Qorayaloqning bu xili o'rtacha kattalikda bo'lib, umumiy tusi kul rang, qorni oqish bo'lgani tomog'i bilan jig'ildonining qop-qora rangda bo'lishiga qarab uni, oson tanib olinadi. Yerdan ovqat topib eydi, suvga yaqin yurishni va cho'milishni yaxshi ko'radi.

### ***13. Vahimaqush - Remiz pendulinus L. (12- rasm)***

Amudaryo va Sirdaryo bo'ylaridagi to'qaylarda, yuqorida joylashgan shoxlarda, tog' qishloqlarida daraxt shoxining uchida tebranib turgan vahimaqush uyasini payqash mumkin, bu uya qo'lqopga o'xshagan bo'ladi. Mana shu kichkina qushcha (tanasining uzunligi 100—111, qanotining uzunligi 50—60 mm, massasi 8—11 g,) uyasini ko'rasan-u, o'ziga qaraganda shu qadar kattakon qo'lqopni qanday qilib buncha mohirlik bilan yasaganiga hayron qolasan. Patlari kashtan, sarg'ish-ko'kimtir va kulrang tusda.

Amudaryoning quyi oqimlariga aprelda uchib keladi, sentyabrning ikkinchi yarmi va oktyabrda uchib ketadi. Eronda va qisman bizda — Oqangaron, Chirchiq va Zarafshon bo'ylarida qishlaydi. Yoz kezlari tog'li qishloqlar va bargli o'rmonlarda uchraydi.



**12- rasm. Vahimaqush (*Remiz pendulinus* L.)**

May oyida tol, terak, qayin, yovvoyi olma va boshqa daraktlarga uya quradi. Uya qurishda nari bilan modasi birga ishtirok etadi. Avvaliga ular shoxlarning ayrisiga momiq bilan chatishtirilgan o'simlik tolalaridan to'r soladi, bu uyasining bo'lg'usi tubidir. So'ngra pastdan yuqoriga qarab xuddi shu yo'l bilan devorlarini ko'tarib boradi. Bitmagan uyasi osilib turgan bandli savatchaga o'xshagan bo'ladi. Devorlarini tobora yuqoriroq ko'tarib boradi. Natijada ikkita teshigi bo'lgan xaltacha yuzaga keladi. O'sha teshiklarining birini bekitib tashlashadi, ikkinchisining chetlariga to kaltagina nov qosil bo'lmaguncha yangi-yangi o'simlik tolalarini qavatma-qavat qilib chatishtirib chiqaveradi, vahima qushlar inining ana shu novidan ichkariga kiradi. Uyasining diametri taxminan 13, uzunligi 18, teshigining diametri 2,5 sm. May oyining oxiri — iyun boshida tuxumlarini batamom qo'yib bo'ladi, bunda uyasida kattaligi 16X10 mm keladigan 6—9 ta cho'ziq oq tuxumlar bo'ladi. Tuxumlarining po'sti yupqa va nozik bo'lganidan yangi qo'yanlari pushti rang bo'lib ko'rinadi. Tuxumlarini modasi 13—14 kun bosib yotadi. Tuxumdan chiqqan bolalari patsiz, ko'zi yumuq, nimjon bo'ladi va 16—18 kungacha uyasida bo'ladi.

Ovqati turli-tuman hasharotlar va o'rgimchaklar. Kuzda va qishda murakkab gulli yovvoyi o'simliklarning urug'larini eydi. Daraxtlarda uchraydigan zararkunandalarni qirib, bog'-rog'lar va o'rmonlarni qo'riqlaydi.

### **13. Buxoro chittagi - *Parus bokharensis* Licht.**

Toshkent va Fargonadagi bog'-rog'lar va parklarda, ayniqsa kuz kezlari dov-daraxtlarning shoxlarini timirskilab yuradigan kichkina qushchalarning «chi-chi-chi», «chi-chyu, chi-chyu, chi-chyu» deb jarangdor ovoz bilan sayrashi ko'p eshitiladi. qushchalarning tumshufi kalta, orqasi kul rang, qorni va ko'kragi oq, ko'kragida uzunasiga ketgan qora yo'li bo'ladi. Bonshning usti, tomog'i va jig'ildoni qora, xuddi metalldek ko'kintir yaltirab turadi; lunjlari oq bo'ladi.

Bu chittaklar yakka-yakka, juft-juft yoki kichikrok gala qosil qilib yuradi. O'zbekistonda o'troq yashaydi. Faqat kuz va qishda yaqinroq joylarga uchib boradi. Tekisliklar va tog'larda, lekin dov-daraxtlar bo'ladigan joylarda yashaydi. Shu sababdan daryo bo'ylaridagi to'qaylarda, bog'lar va qishloqlarda, shahar parklari va tog'dagi o'rmonlarda uya quradi.

April boshida urchiydi. Uyasini modasi qayvonlar junidan daraxt-larning kovagiga yoki imoratlarning yoriq-tirkishlariga soladi. Uyasida qizfish-jigar rang xollar va nuq-talar bilan qoplangan 6 tacha oq tuxumi bo'ladi, tuxumning o'sha xollari va nuqtalari o'tmas uchida ba'zan sezilarli doiracha qosil qi-ladi. Birinchi marta qo'yilgan tu-xumlaridan chivdan bolalarini ota-ona qushlar o'stirib olganidan keyin (bu bolalari may oyida uyasidan uchib chiqadi) modasi ikkinchi marta tuxum qo'yishga kirishadi.

Chittaklar asosan hasharotlar va ularning lichinkalari, ba'zan o'rgimchaklar bilan oziklanadi. Hasharotlar kamayib qoladigan kuz va qish paytlarida chittaklar urug'larni terib eyishga majbur bo'ladi. Ovqatini nuqul deyarli daraxtlardan topib eydi va daraxt po'stloqlarining burmalari orasidan zararli hasharotlarni qidirib, qar bir shoxni osongina titkilab chpqadi. Bu qushchalarni ko'pincha boshini pastga

kilib osilib turgan qolda ko'rish mumkin. Chittak daraxtlarni hasharotlardan qo'riqlaydi. Uni bog' va parklarga jalb qilish va inlar osib qo'yish kerak.



**13-rasm. Buxoro chittagi (*Parus bokharensis* Licht.)**

Bitta chittak bir kunda bir necha mingta hasharotni eb kuritadi. Ukrainada balikchilar koloniyasi, ya'ni 60 mingtaga yaqin bo'lgan koloniya qar yili 12 tonna hasharotni eb kuritadi. Go'ng qarg'alarining galasi bir kunda 6 gektar Yerdagi zararkunanda xasharotlarni eb kuritadi, ular chigirtka, simkurt, uzunburin qo'ng'izlar, xasvalarni eb kuritadi. Shuni xam aytish kerakki, go'ng karfalar makkajo'xori maysasini va ekilgan gallani eb zarar xam keltirishi mumkin.

#### **14. Hind chumcug'i - *Passer Indicus* Jard.**

Uzbekistonda hind chumcug'i uchib ketuvchi qushdir. Narining boshi tepasi va ensasi kulrang tusda, ko'zining ortsasida malla-jigar rang yo'li bor, suloq teshigi atro-fidagi patlari oq yoki oqish. Modalarining ustki tomoni gungurt-tsunfir rangda bo'lib, qora-qora xollari bor, pastki tomoni ko'ng'ir, qanotidan ko'ndalangiga oqish yo'l o'tgan. Bu chumchuq vohalar, to'qaylar, saksovulzorlarda yashaydi va qirg'oqdagi jarlarga uya qurishni ma'qul ko'radi. Tog'larda 2200—2300 m gacha balandlikka ko'tariladi. Bu chumchuq bizga aprel

oxirla-rida uchib keladi. Kuzda uchib ketishi avgust o'rtalaridan boshlanadi va sentyabrda tugaydi.



**14-rasm. Hind chumcug'I - *Passer Indicus* Jard.**

Uyalari asosan sharsimon shaklda bo'lib, ularni jarlardagi inlarga, daraxtlarga, kis-mi havoda osilib kirdi, lekin ilon boshi va tanasining oldingi kismi kavaklarga, tomlar-ning bo'foti va bonhalarga soladi. Uyasining devorlarini ko'pincha pat va jun aralashgan ko'm-ko'k maynn o't-o'lanlardan quradi. Kosachasnni halin momiq va pat qatlami bilan qoplaydi. Kirish tegdigi dumaloq, uyasi yuqori qnsmining yon tomonida bo'ladi. Uya qurish davri juda cho'ziladi. 11 iyunda ba'zi qushlar hali uya solayotgan bo'lsa, boshqalari endi tuxumini ochib chiqqan bo'ladi. Uyasiga odatda kul rang yoki ko'ng'ir kuyuk, xol-xollari bo'lgan 5—8 ta ola-bula tuxum qo'yadi. Tuxum bosish muddati 12 kun atrofida. Tuxumdan chiqqan bolalari 12—13 kundan keyin uchirma bo'ladi.

Chumchuqlar uchib kelgach dastlab may oyi o'rtalarigacha hasharotlar bilan oziqlanishadi; bolalarini ham hasharotlar bilan boqishadi. Bu bilan ular katta foyda keltirishadi. Arpa va bug'doy pishishi bilan dalalarga yopirilishadi. Ular ayrim joylarda hosilning 24 foyizini yo'q qilisi mumkin. Hosil yifib olinganidan so'ng ular minglab gala bo'lib, urug'li piyoz, makkajo'xori, oqjo'xoriga yopiriladi, tokzorlar va sholipoyalarni shift-shiydom qilib ketishadi. Tuxumdan chiqqan bola-

lari uchirma bo'lganidan keyin ular ko'chib yyurishadi. Tunni ekinlar yaqinidagi butalar ustida o'tkazishadi. Kunduzlari yana oziq qidirishadi. Hind chumcug'i qishloq xo'jaligiga katta ziyton ketiradi.

Farg'ona hamda Sirdaryo o'rta oqimi tog'oldi va tog'larning pastki mintaqasida uy chumcug'i (*Passer domesticus* L.) yashaydi. U sirtdan hind chumcug'iga juda o'xshab ketadi. Undan boshining ikki yoni och kul rangda bo'lishi bilan farq qiladi. Bu qush o'troq yashaydi. Individlari va mayda-mayda galalari Toshkentda Ovdo'r-fon va Chirchiq vodiysining boshqa shaharlari hamda qishloqlarida qishda, hind chumchuklari bo'lmaydigan paytda uchrab turadi.

### **15. *Dala chumchupg'i* - *Passer montanus* L. (15-rasm)**

Jazirama tush paytida men Chotqol tog'i tizmalari yonida joylashgan Parkent qishlofida kattakon qayrofoch tagidagi choyxonada o'tirardim. Choy ichib o'tirib, yo'li Toshkentga tushadigan mashinani poylamoqda edim. Qishloqning hamma yofi meva bog'lari-yu, tokzor. Bu bog'-rog'lar va tokzorlar ortidan gullab turgan lolakizfaldoq bilan qipqizargantepaliklarko'tarilibboradi. Sharq tomonda moviy rang bo'lib turgan tog' tizmalari ko'zga tashlanadi. Ularning orasida qor bilan qoplangan Qizil Hypa cho'qisi ajralib turibdi.

Bu qush O'zbekistonning odam turadigan hamma joyida o'troq qolda yashaydi. U uy chumchuqdan sal kichikroq. Galalarining bir xilligi uzoqdanoq ko'zga tashlanadi. Narlari bilan modalari bir xil rangda. Boshining usti, chakkalari va bo'ynining orqasi malla-qo'ng'ir rangda. Quloq soqasining orqa qismida qora xoli bor. Tanasining orqa tomoni kul rang tus aralash qo'ng'ir-ko'kimtir-sarg'ish. Qorni oq, aqyon-aqyonda och kul rang.

Dala chumchuq deyarli butun Evropa va Osiyoga tarqalgan bo'lib, 66 ta kenja turi bor. O'zbekistonda turkiston dala chumcug'i yashaydi. U aholi yashaydigan punktlardan nari ketmaydi, goho-goho daraxtlar, jarlar va qoyalarda uchraydi. Tog'larda tog'oldi joylarini va bafri keng ochiq vodiylarni egallaydi. Odamga ergashib tog'larda 2300 m gacha va undan ham yuqoriroq ko'tariladi.

Saqrolarda chekka joylarni egallaydi va aholi turar joylari hamda manzilgoqlari bor erlardagina ichkariga o'tadi.



**15-rasm. Dala chumchug'i -*Passer montanus L.***

Yil bo'yi ikki marta, ba'zi joylarda esa uch marta tuxum qo'yadi. Juft-juft bo'lib va aqyon-aqyondagina koloniya bo'lib, tomlar bo'fotiga, imoratlarning yoriq-tirqishlariga, jarlarda boshqa qushlar tomonidan yasalgan inlarga uya quradi. Urchish davri juda uzoqqa cho'ziladi. Bahor erta kelgan yillari fevraldan uya qurishga kirishadi. Respublikaniyag janubida aprel boshida, Toshkent va Namangan atrog'larida faqat may oyida birinchi marta tuxum ko'yadi. Tuxumlari 5—6 dona, kattaligi 19x14 mm bo'ladi. Tuxumining po'sti oq, kul rang yoki sarg'ishroq, mayda qora xollar bilan halin qoplangan. Tuxum bosib yotadigan vaqti 12 kun atrofida. So'nggi tuxumlaridan chiqqan bolalari avgust oxirida uchirma bo'ladi. Kuzda kichikroq galalar qosil kiladi, bu galalarn ma'lum bir joydan nari ketmaydi. Odatda qar kuni bitta daraxtning o'zida tunaydi.

Turkiston dala chumcug'ining ozig'i yil bo'yi o'zgarib boradi. Erta bahorda u mevali daraxtlar yosh novdalari, kurtaklari, gullari, barglari, unayotgan madaniy o'simtalar, don va urug'lar, shuningdek hasharotlar va ular lichinkalarini terib eydi. Yoz boshlarida bolalarini boqish davrida qo'ng'izlar, chigirtkalar, kapalaklar, chumolilar, termitlar, o'simlik shiralar va boshqa hasharotlarni yeg'adi.

Chumchuqlar bolalariga oqjo'xori donlari, tozalangan kungaboqar urug'lari, uzum va boshqalarni eydi. Yozning o'rtalari va ikkinchi yarmida ovqatining ko'pchilik qismini donli va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari (makkajo'xori, oqjo'xori, kungaboqar, bufdoy, o'rik, uzum) tashkil etadi. Ashxobodda uzum qosilining 22 dan to 100 protsentgachasinn chumchuqlar eb ketadi. Yoz oxirlari va kuzda chumchuqdan keladigan zarar kamayadi. Chunki bu davrda u asosan begona o'tlar urug'larini eydn. Bundan tashqari tashlandiqlar tashlab qo'yilgan joylarda yurib, keyin esa dasturxon va idish-tovoqlar ustiga o'tirib, chumchuk. oyoqlaridan qorin tifi va dizenteriya qo'zfatuvchila-rini tarqatadi.

Dala chumchug'i zararkunanda qush bo'lsa ham, uning ziyoni hind chumcug'i va qorato'sh chumchuq zararidan kamroq. chunki u uncha dalalarga uncha ko'p yopirilmay, odamlar turar joylari atrofidan ovqat topib eydi.

#### **16. Uzundum pashshaxo'r (Terpsiphone paradis1 L.)**

Tog'oldi bargli o'rmonlar va qishloqlarda uzundum pashshaxo'r uya quradi. Ko'pincha uni jannat qush deyishadi. Boshqa pashshaxo'rlardan yirikligi, boshida toji bo'lishi, orqa tomoni oqish malla tusda, boshining ko'kish qoramtir rangda tovlanib turishi va uzun dumi bilan farq qiladi. Voyaga etgan narlarida dum patlarining o'rta jufti juda uzun, 50 sm ga etadi. Uzundum pashshaxo'r tinib-tinchimas qushdir. U kun bo'yi shoxdan shoxga, daraxtdan-daraxtga uchib o'tib yuradi. Kun juda isib ketgan paytdagina soyaga o'tib, dam oladi.. Erga nihoyatda kam tushadi va beo'xshov harakatlar bilan sakrab hamda uzun dumini yuqori ko'tarib yuradi. Sayrash «chitir-chitir» yoki «chit-chit» degan tovushlarga o'xshaydi. Bu qushni damba-dam sayrashiga qarab topish mumkin.



**16- rasm. Uzundum pashshaxo'r (Terpsiphone paradisi L.)**

O'zbekistonning Chotqol tizmalarida, Xumson, Oqtosh, Burchmullada birmuncha uchrab turadi. Bundan 30 yilcha ilgari bu qushlar Toshkentda ham uya qurar edi. Pashshaxo'rlar Namanganda va Farg'ona vodiysi atrofidagi tog'larda yashaydi. Jizzax atrofidagi bog'lar va Samarqand yaqinidagi tog'larda ham bu qushlar bor. Ularni Yakkabog' va Boysunda ham ko'rishgan. Hindistonda qishlaydi. Sersoya bog'lar va keng bargli o'rmon chetlarida, yaqin atrofda soy, jilg'a, kanal yoki kichikroq buloq bor erlarga joylashib oladi. Tog'larda 1700 m gacha ko'tariladi.

Toshkent atroflarida bu qushlar odatda 1 may bilan 2 may o'rtasida, juda kamdan-kam hollarda 29 ap-relda paydo bo'ladi. Uchib o'tishi va uchib kelishi ntki hafta, goho uch hafta davom etadi. Chirchiq vodiysida kuzda uchib o'tishi va uchib ketishi 20 avgust bilan 5 sentyabr o'rtasiga to'g'ri keladi. Kuzgi uchib o'tish vaqtida bu qushlar ba'zan 30 tachasi bir to'planib, kichikroq gala hosil qiladp.

Mayning ikkinchi o'n kunligida uya qurishga kirishadi. Uya kurishda modasi bilan nari baravar ishtirok etadi. Uyalarini 2—6, ba'zida esa bundan ham yuqoriroq –11m gacha balandlikka soladp. Uyasi qiyosan kichikroq, ancha toza va

hatto chiroyli bo'ladi. Uyasining shakli yarimsharsimon, ba'zan silindrsimon, tubi dumaloqlanib kelgan. Lub tolalari asosiy qurilish materiali hisoblanadi. Uyaning yupqa ichki qatlamini cho'ziluvchan o'tpoyalar va lub tolalaridan quradi. Uyasi shoxlarga yaxshiroq mahkamlanishi uchun tanqi tomonidan yopishqoq o'rgimchak ini tutamlari bilan tortib qo'yilgan bo'ladi. Uyasining balandligi 50—97mm, chuqurligi 41—50mm, eni 73—92mm, teshigining diametri 58— 63 mm bo'ladi. 20 maydan boshlab tuxum qo'ya boshlaydi. Uyasida kattaligi 26X20 mm keq-ladigan 4—5 ta tuxum bo'ladi. Tuxumining po'sti kam seziladigan pushtinamo tus aralash oq, qizg'ish-jigar rang siyrak xollar bilan qoplangan.

Hasharotlar bilan ozhlanadi, ularni asosan uchib ketayotgan vaqtida tutib olishadi. Yosh qushchalar qurtlar, chumolilar va o'rgimchaklarni topib eydi.

## XULOSALAR

1. Chumchuqsimonlar turkumiga tashhqi ko'rinishi va hayot kechirishi turlicha bo'lgan 5000 dan ortiq qushlar turi kiradi. O'zbekiston faunasida chumchuqsimonlarning 203 turi tarqalgan bo'lib, barcha qushlar turning deyyarlik yarmisini tashkil etadi. Chumchuqsimonlarning 40 turi jahon faunasining TMXI Qizil ro'yxatiga kiritilgan

2. Chumchuqsimonlar turkumi 3 kenta turkumiga bo'linadi. O'zbekiston faunasida faqat sayriqi chumchuqsimonlar kenta turkumi vakillari uchraydi. Biz kuzatish olib brogan hududda chumchuqsimonlarning 19 turi tarqalgan bo'lib, ular 12 oilaga bo'linadi.

3. Chumchuqsimonlar oziqlanish usuliga binoan hasharotxo'rlar, donxo'rlar va hammaxo'rlarga bo'linadi. O'simlik bilan oziqlanadigan ko'pgina turlari o'z bolasini hasharotlar bilan boqadi. Birqancha turlarida rangi, katta-kichikligi, ovozi va toji pat o'siqlarida jinsiy dimorfizm ifodalangan bo'ladi.

4. Aniqlangan 19 turdan qishloq qaldirg'ochi, tog' jibilajiboni, oq jibilajibon, niqobli jibilajibon, uzundum qarqunoq, zarg'aldoq, dumparast, qarqunoq, kichik pashshaxo'r, kulrang pashshaxo'r, janub bulbuli uchib ketuvchi; dala to'rg'ayi, zag'cha, qora qarg'a, qorayaloq ko'chib yuruvchi; mayna, uy chumcug'i, hakka o'troq qushlarga qushlarga kiradi.

5. Tog'larda chakalakzorlar, sershox va yirik eski daraxtlarning ko'plab kesilib ketishi, tog' yon bag'irlarini chorvachilik va dehqonchilik maqsadlarida o'zlashtirilishi natijasida qushlar yashaydigan muhitni buzilishi qushlar sonini keskin kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2005. -176 b.
2. Abdullaev M., Rasulov M., Fayozova S. Umurtqali hayvonlar zoologiyasidan dala praktikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari tabiiyot-geografiya fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «O'qituvchi». 1987, 80 b.
3. Azimov D., Lanovenko E., Filatov A., Mirabdullaev I. Soxranenie biologicheskogo raznoobraziya: problemo` i sujdeniya. J. Ekologicheskij vetsnik. 2003, №1, 5-14 sr.
4. Biologicheskij ensklopedicheskiy slovar. Moskva, Sovetskaya ensklopediya. 1986. -832 s.
5. Bobrinskiy NA. va boshqalar. Zoologiya kursi, P-tom. Xordalilar. T.: "O'qituvchi", 1966, 486 b.
6. Bogdanov O. P. O'zbekitson hayvonlari (umurtqalilar). Toshkent "O'qituvchi", 1983, 1-320 b.
7. Bogdanov O. P. Redkie jivotni`e Uzbekitsana. Entsiklopedicheskiy spravochnik. T. "Glavnaya redaktsiya ensiklopediya" 1-398 sr.
8. Bolshoy atlas jivotno`x. Perevod s italyanskogo. Moskv, Atsrel ATs. 2004. -251 s.
9. Brem Alfred. Jizn jivotno`x. Ptitso.Tom-1, izd.ATs Moskva, 2001.-684 s
10. Dadaev S., Saparov Q. Zoologiya. T., "Moliya" nashriyoti.2009. -480b.
11. Zoxidov T.Z. Zoologiya ensiklopediyasi. Qushlar. T.: "Fan", 1957.- 128.
12. Kollektiv. Jizn jivotno`x . V 6- tomax. Tom 5. Ptitso`. Moskva, izd. "Prosvehenie", 1970. 612 s.
13. Kollektiv. Bolshaya ensiklopediya jivotnogo mira. Moskva, izd. Roslin: 2007. 613 s.
14. Konstantinov V. M, Naumov S.P., Shatalova SP. Zoologiya pozvonochno`x: Uchebnik dlya vo`ssh. ped. ucheb. Zavedeniy.-M.: «Akademiya», 2007,464 s.

15. Laxanov J.L. O'zbekistonning umurtqali hayvonlari aniklagichi. T.: «O'qituvchi», 1988, 224 b.
16. Mavlonov O. Zoologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik . Toshkent, " O'zbekiston entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti , 2005.-237 b.
20. Mavlonov O. Zoologiya. Akademik litsey o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, " O'zbekiston entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2010. - 320 b.
21. Naumov. S. P. Zoologiya pozvonochno`x. Uchebnik dlya studentov ped.in-tov po boil.spets. M., «Prosvehenie», 1982, 464 s.
22. Potapov I.V. Zoologiya s osnovami ekologii jivotno`x. Uchebnoe posobie.: «Akademiya», 2001,237s.
23. Ptitsi Uzbekistana. T.3. T.: "Fan", 1993. -297 s.
24. Shernazarov E.S. va boshqalar. O'zbekiston umurtqali hayvonlari. Ma'lumotnoma. T.: 2007. -274 b.
25. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2-jild. Hayvonot olami.T.:2006.
26. Internet ma'lumotlari:

Iskandarova Sayyora Raxmatovnaning «Chorvoq atrofida tarqalgan  
chumchuqsimonlar biologiyasi» mavzusidagi bitiruv ishiga

ANNOTOTSIYA

Bitiruv malakaviy ish o'quv dala amaliyoti vaqtida to'plangan materiallar asosida tayyorlangan. BMI kirish, ikki bob va xulosalardan iborat. Kirishda ilmiy ishning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari yoritilgan.

Birinchi bobda qushlar tashqi tuzilishining umumiy xususiyatlar, qushlarning ko'payishi, hayot kechirishi va qushlar ekologik xususiyatlari ochib berilgan. Bu bobda keltirilgan ma'lumotlar mavzuga oid adabiyotlar asosida yozilgan.

Ikkinchi bobda chumchuqsimonlar turkumining tavsifi va chumchuqsimonlar asosiy turlarining tavsifi, olib borilgan kuzatishlar asosida yoritilgan. Chorvoq atrofida tarqalgan chumchuksimonlarning 12 oilaga mansub 16 ta turiga ta'rif berilgan. Bunda turning asosiy morfologik belgilari, hayotiy tsikli va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Bitiruv malakaviy ish so'ngida bajarilgan ish yuzasidan 5 ta xulosa keltirilgan.

## АННОТАЦИЯ

на выпускную квалификационную работу студентки 4 курса  
биологического направления Искандаровой Сайёры на тему «Биология  
воробьинообразных, распространенных в округе Чарвака»

Выпускная квалификационная работа подготовлена по материалам, собранным во время учебно-полевой практике. ВКР состоит из введения, двух глав и вывода. Во введении раскрывается актуальность, цель и задачи научной работы.

В первой главе освещается общая характеристика внешнего строения птиц, их размножение, развитие, биология и экологическая особенность. Приведенные сведения в главе написаны на основе литературных материалов.

Общая характеристика отряда воробьинообразных и характеристика основных их видов, освещенных во второй главе раскрыты при помощи наблюдений. Дано описание 16 видам воробьинообразных, относящихся к 12 семьям в округе Чарвака. Здесь раскрыты морфологические признаки, жизненный цикл и особенности этого вида. В заключении ВКР приведены 5 выводов.

## THE SUMMARY

On final qualifying job the student 4 rates of a biological direction Iskandarova Sayyora on a theme "Biology passerins, widespread (distributed) in a district Chorvoq"

The final qualifying job is prepared on materials assembled during educational- of field practice. Final qualifying job consists of introduction two chapters and conclusion. In introduction the urgency, purpose and tasks scientific job is opened.

In the first chapter the general characteristic of an external structure of birds, their duplication, development, biology and ecological feature inquires. Given сведения in the chapter are written on the basis of literary materials.

General characteristic of group passerins and characteristic of their basic kinds informed in the second chapter are opened through supervision. The description to 16 kinds passerins, concerning to 12 families in a district Chorvoq is given. Morphological attributes, life cycle and features of this kind here are opened. In the conclusion final qualifying job 5 conclusions are given.

## LUG‘AT

| Atamalar         | Atamalar ma‘nosi                                                     | Atamalar inglizchsi |
|------------------|----------------------------------------------------------------------|---------------------|
| Aniqlash         | Qush turini aniqlagich yordamida aniqlash                            | The determinant     |
| Biologiya        | Tirik organizmlarni o‘rganadigan fan                                 | Biology             |
| Biotop           | Hayvonlar yashaydigan geografik joy                                  | Biotop              |
| Biotsenoz        | Bir muxitda yashaydigan organizmlar yig‘indisi                       | Biotsenoz           |
| Chumchuqsimonlar | Qushlarning eng ko‘p turga ega turkumi                               | Passerins           |
| Dum              | Qushlarning uzun patlardan iborat keyingi qismi                      | Tail                |
| Ekologiya        | Tirik organizmlar yashaydigan muxit bilan ular orasidagi munosabat   | Ecology             |
| Etiologiya       | Hayvonlarning xulq-atvori                                            | Etiologiya          |
| Hayvonot bog‘i   | Yovvoyi hayvonlar saqlanadigan sun‘iy muxit                          | Zoopark             |
| Ishlanma         | Hayvonlarni aniqlash yoki kuzatish olib borish haqidagi ko‘rsatmalar | Development         |
| Jig‘ildon        | Donxo‘r qushlar qizilo‘ngachining kengaygan qismi                    | Crow                |
| Jo‘ja            | Pat va par bilan qoplangan, yura oladigan qush bolasi                | Chickens            |
| Kaptarsimonlar   | Qushlar sistematikasidagi turkum                                     | Pigeons             |

|                   |                                                  |                 |
|-------------------|--------------------------------------------------|-----------------|
| Kuzatish          | Qushlar ustida tadqiqot olib borish metodi       | Supervision     |
| Malumotnoma       | Xududda tarqalgan hayvonlar haqidagi dalillar    | The directory   |
| Metod             | Hayvonot olamini o'rganish usullari              | Method          |
| Morfologiya       | Qushlarning tuzilishini o'rganadigan fan         | Morphology      |
| Nasl              | Hayvon bolalari                                  | The inheritance |
| Ob'ekt            | Materiyani bir ko'rinishi                        | Object          |
| Oila              | Qushlar sistematikasidani bir kattalik           | Family          |
| Ov                | Qushlarni odamlar tomonidan tutilishi            | Hunting         |
| Par               | Qushlar tana qoplami                             | Down            |
| Pashshaxo'r       | Hasharotlar bilan oziqlanadigan chumchiqsimonlar | Flycatchers     |
| Qanot             | Qushlarning uchishga moslashgan oldingi oyoqlari | Wing            |
| Qush bolasi       | Jo'ja yoki poloponlar                            | Nestling        |
| Qushlar           | Hayvonot olamining yirik sinflaridan biri        | Bird            |
| Sinf              | Hayvonot olamining taksonomik birligi            | Class           |
| Tabiat            | Organizmni o'rab turgan borliq                   | Nature          |
| Tadqiqot          | Ilmiy ishlar olib borish                         | Research        |
| Taksonomik birlik | Hayvonot olamining sisematik birliklari          | Taksonomec unit |
| Terrarium         | Su'iy quruqlik modili                            | Terrarium       |

|               |                                            |                     |
|---------------|--------------------------------------------|---------------------|
| Tip           | Toksonomik birlik                          | Type                |
| Tovuqsimonlar | Qushlarning bir turkumi                    | Gallinaceous        |
| Sevka         | Qush oyog'ining barmoqlarlan oldingi qismi | Sevka               |
| Sikl          | Hayot jarayonini almashinishi              | Cycle               |
| Tur           | Eng kichik sistematik birlik               | Kind                |
| Tur nomi      | Hayvonlarning qo'sholoq nomlanishi         | The names of a kind |
| Turkum        | Hayvonlarning sistematik birligi           | Group               |
| Uya           | Qushlar uyi                                | Jack                |
| Xudud         | Qushlar tarqalgan ma'lum bir joy           | Region              |